



**KULOCHCHILIK TERMINLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI:
NAZARIY-ASOSIY TAHLIL, SEMANTIK QATLAMLAR VA
LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV**

Mannonova Maftuna Shukrillo qizi

Qarshi xalqaro universiteti

“Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili)”

kafedrasi o`qituvchisi,

maftunamannonova3@gmail.com

UDK: 413.164:943.75

ORCID: 0009-0004-2675-8132

*“Linguistic features of pottery terminology: theoretical–core analysis,
semantic layers, and lexicographic approach.”*

Mannonova Maftuna Shukrillo kizi

"Department of Philology and Teaching Languages (Uzbek Language) Lecturer",

Karshi International University,

maftunamannonova3@gmail.com

UDK: 413.164:943.75

ORCID: 0009-0004-2675-8132

*«Лингвистические особенности терминологии гончарного дела:
теоретико-основной анализ, семантические слои и лексикографический
подход.»*

Маннонова Мафтуна Шукрилло кизи

*"Преподаватель кафедры филологии и преподавания языков (узбекский
язык)"*

Каршинского государственного университета

maftunamannonova3@gmail.com

UDK: 413.164:943.75

ORCID: 0009-0004-2675-8132



Annotatsiya: Maqolada o'zbek kulolchilik sohasiga oid terminlarning lingvistik tabiatiga nazariy yondashuvlar asosida baho beriladi. Kulolchilik terminlarining etimologik asoslari, morfologik-manzil tuzilishi, semantik maydonlari va dialektal variantlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, hunarmandchilik terminlarining madaniy xotira unsuri sifatida tutgan o'rni, terminlarni korpus asosida standartlashtirish zarurati va ularning leksikografik ifodalanish prinsiplari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kulolchilik, termin, leksik-semantika, etimologiya, dialektologiya, normativ terminologiya, lingvokulturologiya.

Kirish

Kulolchilik — butun dunyoda qadimdan rivojlangan va xalq madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan hunar. Kulolchilikning o'ziga xos terminologiyasi nafaqat amaliy bilimlarni ifodalovchi so'zlar majmuasi, balki o'zbek xalqining dunyoqarashi, an'analari, qadriyatlari va milliy ma'naviyatining aksidir. Ushbu maqolada kulolchilik sohasidagi terminlarning lingvokulturologik tahlili amalga oshiriladi va ularning xalq madaniyati bilan aloqasi o'rganiladi. Kulolchilik qadimiy hunar sifatida xalqning dunyoqarashi, mehnat jarayonlari va qadriyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois kulolchilik terminlari maqollarda nafaqat leksik birlik, balki ramziy-majoziy obraz sifatida ham xizmat qiladi. Tadqiqotda ushbu terminlarning semantik xususiyatlari, madaniy konnotatsiyasi va xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni aniqlanadi. Kulolchilik o'zbek xalqining qadimiy moddiy va ma'naviy madaniyatida muhim o'rin tutadi. Ushbu hunar bilan bog'liq terminlar nafaqat texnik jarayonlarni ifodalaydi, balki ularda xalqning ko'p asrlik tajribasi, marosim tizimi, ijtimoiy-madaniy qarashlari va mahalliy hunarmandchilik maktablarining o'ziga xosligi mujassamdir. Kulolchilik terminlarini lingvistik tizimda o'rganish, ularning semantik tuzilishi, etimologiyasi, dialektal variantlari va ijtimoiy funksiyalarini aniqlash mazkur maqolaning asosiy maqsadidir.

Аннотация: В статье оценивается лингвистическая природа узбекской терминологии гончарного дела на основе теоретических подходов. Подробно анализируются этимологические основы, морфологическая и структурная



организация, семантические поля и диалектные варианты гончарных терминов. Кроме того, рассматривается роль ремесленной терминологии как элемента культурной памяти, необходимость стандартизации терминов на основе корпусов и принципы их лексикографического отображения.

Ключевые слова: гончарное дело, термин, лексико-семантика, этимология, диалектология, нормативная терминология, лингвокультурология.

Введение

Гончарное дело — это древнее ремесло, развитое во всем мире, и неотъемлемая часть народной культуры. Специфическая терминология гончарного дела

не только отражает практические знания, но и отображает мировоззрение, традиции, ценности и национальный духовный опыт узбекского народа. В данной статье проводится лингвокультурологический анализ терминов, используемых в гончарстве, и изучается их связь с народной культурой. Как древнее ремесло, гончарное дело непосредственно связано с мировоззрением народа, трудовыми процессами и ценностями. Поэтому термины гончарного дела в пословицах служат не только лексическими единицами, но и символическими и метафорическими образами. В исследовании определяются семантические особенности, культурная коннотация и роль этих терминов в устном народном творчестве. Гончарное дело занимает важное место в материальной и духовной культуре узбекского народа. Термины, связанные с этим ремеслом, выражают не только технические процессы, но и воплощают многовековой опыт, систему обрядов, социокультурные взгляды и особенности местных ремесленных школ. Основная цель статьи — изучение терминологии гончарного дела в лингвистической системе, определение их семантической структуры, этимологии, диалектных вариантов и социальных функций.

Abstract: *The article evaluates the linguistic nature of Uzbek pottery terminology based on theoretical approaches. The etymological foundations,*



morphological-structural composition, semantic fields, and dialectal variants of pottery terms are analyzed in depth. Furthermore, the study highlights the role of craft terminology as an element of cultural memory, the necessity of standardizing terms using corpora, and the principles of their lexicographic representation.

Keywords: *pottery, terminology, lexical semantics, etymology, dialectology, normative terminology, linguoculturology.*

Introduction

Pottery is an ancient craft developed worldwide and an integral part of folk culture. The specific terminology of pottery not only represents practical knowledge but also reflects the worldview, traditions, values, and national spirituality of the Uzbek people. This article presents a linguoculturological analysis of terms used in pottery and examines their connection to folk culture. As an ancient craft, pottery is directly linked to the worldview, labor processes, and values of the people. Therefore, pottery terminology in proverbs serves not only as lexical units but also as symbolic and metaphorical images. The study identifies the semantic features, cultural connotations, and the role of these terms in oral folk creativity. Pottery occupies an important place in the material and spiritual culture of the Uzbek people. The terms associated with this craft express not only technical processes but also embody centuries of experience, ritual systems, socio-cultural views, and the uniqueness of local craft schools. The main purpose of this article is to study pottery terminology within a linguistic system, clarifying their semantic structure, etymology, dialectal variants, and social functions.

Terminologiya nazariyasi va kulolchilik leksikasining ilmiy o'rganilishi

O'zbek xalqining turmush tarzida hunarmandchilik, xususan kulolchilik alohida o'rin tutadi. Kulollar yaratgan buyumlar nafaqat amaliy maqsadlarda, balki estetik va ramziy jihatdan ham qadrlangan. Xum, kosa, ko'za, piyola, lagan kabi buyumlar xalqning kundalik hayotida qo'llanilib, til va tafakkurda barqaror obrazlarga aylangan. Shu bois kulolchilik terminlari asosida ko'plab maqollar shakllangan. Kulolchilik insoniyat tarixidagi eng qadimiy hunarmandchilik turlaridan biri bo'lib, u dastlab ehtiyoj mahsuli sifatida paydo bo'lgan. Arxeologik



tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, miloddan avvalgi IV–III ming yilliklarda O'zbekiston hududida yashagan qabilalar hayotida sopol buyumlar keng qo'llanilgan. Qadimiy Afrosiyob, Varaxsha, Xorazm va boshqa shaharlardan topilgan sopol buyumlar nafaqat maishiy hayot, balki diniy marosimlar, savdo-sotiq va ijtimoiy aloqalarda ham kulolchilikning ahamiyati katta bo'lganini ko'rsatadi.

O'zbek hunarmandchilik leksikasi bo'yicha mavjud tadqiqotlarning aksariyati etnografik tasvirga yo'naltirilgan bo'lib, terminlarning ichki lingvistik tizimi batafsil ishlab chiqilmagan. Terminologiya nazariyasida (Ilin, 1996; Nabiev, 2007) terminlar aniqlik, ixtisoslashuv, ma'no barqarorligi va kontekstga nisbatan qat'iy bog'liqlik kabi belgilar bilan tavsiflanadi. Kulolchilik terminlari ushbu talablarga muvofiq holda texnik jarayon, asbob-uskunalar, buyum tiplari va bezak nomlari bilan bog'liq bo'lgan maxsus leksik qatlamni shakllantiradi.

Kulolchilik terminlarining etimologik tarkibi

Kulolchilik terminlari bir necha tarixiy-lingvistik qatlamlarga bo'linadi:

Turkiy qatlam

Turkiy ildizli terminlar — “ko'za”, “xum”, “tuvak”, “charx” kabi hunarning asosiy unsurlarini ifodalovchi qadimiy leksikalardir. Ular ko'p hollarda fonetik jihatdan barqaror, semantik jihatdan esa keng ijtimoiy-amaliy qo'llanishga ega.

Fors-tojik qatlam

Fors-tojik manbali terminlar — “sir”, “naqsh”, “o'yma”, “islیمی” kabi bezak va texnik atamalarni ifodalaydi. Bular ko'proq bezak madaniyati va texnologik tafakkur bilan bog'liq.

Arabcha qatlam

Arabcha o'zlashmalar — “ustod”, “sanad”, “miqdor” kabi hunar jarayonidagi baholash, boshqarish va ijtimoiy munosabatlarga oid leksikalardir.

Zamonaviy o'zlashmalar

XX asr sanoatlashtirish jarayoni natijasida terminologiyaga texnik o'zlashmalar kirgan, ammo ular kulolchilikning an'anaviy lug'atida uncha keng tarqalmagan.

Kulolchilik terminlarining morfologik tuzilishi



Kulolchilikka oid terminlar quyidagi morfologik tuzilish shakllariga ega:

- **Sodda soʻzlar:** koʻza, kosa, xum, charx.
- **Yasama terminlar:** sirlash (sir + -lash), oʻymakorlik (oʻy + ma+korlik).
- **Biriktirma terminlar:** “sirli koʻza”, “charx tayyorlash”, “loy mushti”.
- **Frazeologik termin birikmalari:** “qolipga solmoq”, “pishiq loy”, “havo chiqarish”.

Mazkur birliklar hunar jarayonining ketma-ket bosqichlarini nomlashda muhim kommunikativ vazifani bajaradi.

Semantik tizim va terminlarning tasnifi

Kulolchilik terminlari semantik jihatdan quyidagi guruhlariga ajratiladi:

Jarayon nomlari: Tayyorlash, yoʻgmoq, sirlash, pishirish, charxlash — texnologik bosqichlarni ifodalaydi.

Buyum nomlari: Xum, koʻza, piyola, lagan, kosa — ishlab chiqarilgan buyumlarning oʻlcham, shakl va vazifaga qarab farqlanishi asosida tasniflanadi.

Asbob-uskunalar: Charx, qolip, loy tosh, pichoqcha — texnik vositalar majmuasi.

Bezak terminlari: Oʻyma, islimiy, girih, qalam naqsh — bezaklarning shakl, texnika va kompozitsiyasiga koʻra nomlanadi.

Sifat va holat bildiruvchi terminlar: Sirlangan, pishiq, yoriq, bir tekis, qalin, nozik.

Kulolchilik — Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy kasblaridan biri boʻlib, u bilan bogʻliq leksik qatlam milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismidir. Bu soha atamalari faqat umumadabiy til doirasida emas, balki ayrim hududiy shevalarda ham oʻziga xos fonetik, leksik va semantik xususiyatlar bilan farqlanadi. Shuning uchun kulolchilik terminlarini dialektologik nuqtai nazardan oʻrganish jarayoni xalq tilining etnografik, iqtisodiy, hunarmandchilik va tarixiy qatlamlarini yoritishga yordam beradi. Kulolchilik terminlarining hududiy variantlari hunarmandchilik maktablari rivoji va mintaqaviy loy xususiyatlari bilan belgilanadi.

- **Fargʻona:** “toplon”, “chakka”



- **Xorazm:** “kobak”, “saqich loy”
- **Qashqadaryo:** “xandon”, “qolipcha”

Hududiy farqlar fonetik, semantik va pragmatik jihatdan o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Kulolchilik terminlari xalqning marosimiy-madaniy amaliyotida muhim o'rin tutadi. Ayrim sopol buyumlar to'y marosimlari, maishiy an'analar, diniy marosimlarda alohida ramziy yuklamalarga ega bo'ladi. Terminlar ushbu madaniy qatlamlarning tilda saqlanishi va avloddan-avlodga o'tishiga xizmat qiladi.

Dialektal kulolchilik terminlari ko'pincha **semantik differensiasiyaga** ega bo'ladi. Ya'ni, bir viloyatda narsa nomi sifatida ishlatilgan so'z boshqa hududda jarayon nomini anglatishi mumkin.

Masalan: **“chaplash”** — Toshkentda: loyni qayta ishlash;
Xorazmda: tovoq chetini tekislash.

“qayirma” — Farg'onada: idishning yuqori cheti;
Qashqadaryoda: ko'zaning o'rtasidagi egilgan joy.

Bu holatlar kulolchilik terminlari semantik tizimining murakkabligini ko'rsatadi.

Kulolchilik terminologiyasini standartlashtirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

1. Hududiy terminlar korpusini yaratish.
2. Dialektal variantlarni normativ shakl bilan qiyoslab, ularni ilmiy lug'atga kiritish.
3. Har bir termin uchun ta'rif, etimologik ma'lumot, dialekt variantlari, vizual materiallar bilan to'ldirilgan terminologik lug'at tuzish.
4. O'quv qo'llanmalari va hunar maktablari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bu yondashuv terminlarni amaliyotdan chiqib ketishdan saqlaydi va ularning madaniy-moddiy ahamiyatini mustahkamlaydi.

O'zbekiston hududida bir nechta tarixiy kulolchilik maktablari mavjud bo'lib, ularning har biri o'z terminologik tizimiga ega:



G'ijduvon maktabi: “zangori”, “sabboq”, “bosma naqsh”

Rishton maktabi: “ishqor”, “kulrang loy”, “lagancha”, “naqqosh chiziq”

Xorazm maktabi: “suvloq loy”, “cho‘pich”, “qopqoqcha naqsh”

Bu maktablarning terminologiyasi dialektal leksika bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning har biri alohida ilmiy tadqiqot obyektidir.

Xulosa

Kulolchilik terminlari o‘zbek tili leksik tizimining qadimiy va rang-barang qatlamlaridan birini tashkil etadi. Ularning etimologik shakllanishi, semantik maydoni, dialektal farqlari va madaniy ahamiyati hunarmandchilik madaniyatining lingvistik ifodasi sifatida o‘ta muhim. Mazkur terminlarni tizimli o‘rganish, korpus asosida hujjatlashtirish va standartlashtirish o‘zbek tilining tarixiy-madaniy merosini saqlash hamda ilmiy terminologiyani boyitish jarayonida dolzarb masaladir. Kulolchilik terminlarining dialektal xususiyatlari o‘zbek tilining boy leksik tizimini va hunarmandchilik madaniyatining tarixiy ildizlarini aks ettiradi. Fonetik, leksik, semantik va etimologik farqlar ushbu terminlarning ko‘p qatlamlilik va arxaiklik xususiyatlarini ko‘rsatadi. Hududlar bo‘yicha shakllangan kulolchilik maktablari esa terminologik tizimning barqaror va murakkab ekanini tasdiqlaydi.

Bu sohaning keyingi ilmiy tadqiqotlari kulolchilik terminlarining kartografiyasi, etnomadaniy tasnifi va dialektal variantlarning semantik xaritasini yaratishga yo‘naltirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov A. O‘zbek xalq amaliy san’ati tarixi. – Toshkent: Fan, 2019. – 256 b.
2. Xudoyberdiyev S. Hunarmandchilik leksikasi va uning taraqqiyoti. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2020. – 198 b.
3. Qodirov H. Kulolchilik san’atining lingvokulturologik tahlili. – Samarqand: SamDU, 2021. – 174 b.
4. Anvarov T. Til va madaniyat: lingvokulturologik yondashuv. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 220 b.
5. Nabiev R. Leksik-semantika asoslari. – Toshkent: Universitet, 2007. – 144 b.



6. Sultonov B. O'zbek dialektlari va hunarmandchilik leksikasi. – Farg'ona: Farg'ona nashriyoti, 2012. – 203 b.
7. Ilin M.V. Terminologiya nazariyasi. – Moskva: Nauka, 1996. – 312 s.